

10-Biologiya (35-38 mavzular)

1. Jigar qurtining quyida berilgan xususiyatlari turning qaysi mezonini ifoda etadi?
a) ekologik; b) morfologik.
1) lichinkasining tanasi kiprikchalar bilan qoplangan; 2) tanasi yassi; 3) voyaga yetganda parazit hayot kechiradi; 4) ikkita so'rg'ichga ega; 5) lichinkasi mollyuska tanasida parazitlik qiladi.
A) *a-3,5; b-1,4* B) *a-2,3; b-1,5*
C) *a-1,4; b-2,3* D) *a-1,5; b-2,4*
2. Quyida berilgan misollar turning qaysi mezonlarini ifodalaydi?
1) bo'rtma nematoda o'simliklarda parazitlik qiladi; 2) yomg'ir chuvalchangi tanasi ko'p sonli bo'g'imlarga bo'lingan; 3) shimpanze kariotipida 46 ta autosoma bor; 4) ildizog'iz meduza Qora dengizda tarqalgan.
A) *1-genetik; 2-fiziologik; 3-genetik; 4-geografik*
B) *1-fiziologik; 2-morfologik; 3-biokimyoviy; 4-ekologik*
C) *1-ekologik; 2-morfologik; 3-genetik; 4-geografik*
D) *1-geografik; 2-morfologik; 3-genetik; 4-ekologik*
3. Quyidagi olimlarning o'z fikirlari bilan birlashtiring.
a) Karl Ber; b) Rudolf Virxov; c) Jorj Kyuve;
1) hujayra faqat avval mavjud hujayralarning bo'linishidan paydo bo'ladi; 2) ko'p hujayrali organizmlarning rivojlanishi bitta tuxum hujayradan boshlanadi; 3) hujayraning asosiy struktura elementi protoplazma va yadro; 4) har qanday tirik mavjudot bir butun sistema bo'lib, uning organlari bir-biri bilan uzviy bog'liq; 5) sinf, turkum, avlod, tur kabi sistematik kategoriyalar sun'iy, real emas;
A) *a-1; b-3; c-4* B) *a-2; b-1; c-5*
C) *a-2; b-3,1; c-5* D) *a-2; b-1,3; c-4*
4. Nuqtalar o'rniga mos javobni aniqlang
Evolutsiyaning boshlang'ich materiali ... hisoblanadi
A) *populyatsiya to'liqini*
B) *migratsiya, alohidalanish*
C) *genetik-avtomatik jarayonlar (genlar dreyfi)*
D) *mutatsion o'zgaruvchanlik*
5. Embrion ma'lum izchillikda rivojlanadi degan fikr qaysi olimga tegishli?
A) *Aristotel* B) *Lukretsiy Kar*
C) *Karl Ber* D) *K. Linney*
6. Quyidagi misollarni mutatsiya jarayon (1) va populatsiya to'liqini (2) biologik hodisalarga moslang?
a) evolyutsiyaning boshlang'ich materiali hisoblanadi; b) bu jarayon populyatsiya genofondini o'zgartiradi; c) kombinativ o'zgaruvchanlik tufayli nasldan naslga beriladi; d) jarayon oziq-ovqatning ortiqcha yoki yetishmasligidan kelib chiqadi; e) irsiy o'zgaruvchanlikning asosiy manbayidir; f) ma'lum bir davriylikka ega;
A) *1-c,d; 2-b* B) *1-d,f; 2-a,e*
C) *1-b,e; 2-a,d* D) *1-a,b; 2-b,f*
7. Suvarakda, qalampirda va shimpanzedagi jinsiy xromosomalarining 23+X yoki 23+Y bo'lishi qaysi mezonning nisbiyligi hisoblanadi?
A) *morfologik* B) *genetik*
C) *ekologik* D) *fiziologik*
8. Kyuve biologiyani qaysi sohalarida faoliyat yuritgan?
1) solishtirma anatomiya; 2) anatomiya; 3) morfologiya; 4) embriologiya; 5) sistematika; 6) paleontologiya; 7) fiziologiya
A) *2,3,5,6* B) *1,3,4,5*
C) *1,2,3,4,5,6* D) *2,3,5,6,7*
9. Qaysi olimlar o'simlik va hayvon turlari o'zgaraydi, deb hisoblashgan?
A) *Kyuve, Lamark* B) *Linney, Lamark*
C) *Linney, Kyuve* D) *Darvin, Lamark*
10. Lamark hayvonlarni bosqichlarga ajratishda qaysi organlar sistemasiga e'tibor qaratdi?
1) ovqat hazm qilish; 2) ayirish; 3) qon aylanish; 4) nafas olish; 5) nerv sistemasiga; 6) sezgi organlari; 7) jinsiy sistemasi.
A) *1,2,3,4,5* B) *1,3,4,5,6*
C) *3,4,1,5* D) *6,7,5,4,3*
11. K. Linney o'simliklarning qanday xususiyatlariga ko'ra sinflarga bo'ldi?
1) gulining tuzilishiga ko'ra; 2) changdonlarining shakliga qarab; 3) changdonlarining soniga qarab; 4) changchi iplarining uzun-qisqaligiga qarab; 5)

D) *tibbiyot asoschilaridan biri bo'lgan*

- changchi iplarining rangiga qarab; 6) changchi iplarining birlashishiga qarab; 7) 23 sinfga bo'ldi; 8) 24 sinfga bo'ldi; 9) 10 sinfga bo'ldi; 10) 6 sinfga bo'ldi.
- A) 1,2,3,8 B) 2,3,5,6,7
C) 3,4,5,6,8 D) 3,4,6,8
12. Aristotel fikricha embrion qanday izchillikda rivojlanadi?
A) *o'simliklar→zoofitlar→umuman hayvonlar→o'z turiga xos tuzilish→shaxsiy xossalar*
B) *zoofitlar→umuman hayvonlar→o'z turiga xos tuzilish→shaxsiy xossalar*
C) *zoofitlar→umuman hayvonlar→o'z tipiga xos tuzilish→ o'z turiga xos tuzilish→shaxsiy xossalar*
D) *o'simliklar→ zoofitlar→umuman hayvonlar→o'z tipiga xos tuzilish→ o'z turiga xos tuzilish→shaxsiy xossalar*
13. Turli kasalliklarning oziqlanish tartibining o'zgarishi bilan bog'liqligini ko'rsatgan olimga tegishli javobni toping.
A) *hayvonlarni klassifikatsiyalashda ko'p belgilar e'tiborga olinishi kerak*
B) *tabiiy va sun'iy tanlanishni etirof etgan*
C) *olimning uqtirishicha tabiatdagi barcha narsalar tabiat qonunlariga muvofiq yashaydi va o'zgaradi*
D) *tabiat o'zgaruvchan u doim yangilanib turadi*
14. K.Galen qaysi hayvonlarni tuzilishini o'rgangan
a) qadimgi ajdodlari 7000 yil avval xonakilashtirilgan turlarni; b) appalon mansub bo'lgan turkumni;
c) quruqlikdagi eng kata umrtqali hayvonlarni;
d) dastlab qo'lga o'rgatilgan umrtqali hayvonlarni;
e) qadimgi ajdodlari 7000 yil avval xonakilashtirilgan turlarni; f) vazni 800 kg bo'lgan hayvonlarni
A) *f,d,a* B) *b,d,f*
C) *d,f,e* D) *a,c,b*
15. Maymun va odamning o'xshashligini e'tirof etgan olimga tegishli javobni aniqlang.
A) *tabiiy va sun'iy tanlanishni e'tirof etgan*
B) *hayvonlar nam yerdan kelib chiqqan*
C) *tabiat o'zgaruvchan u doim yangilanib turadi*
16. O'simliklarni 400 dan ortiq turini o'rgangan olim o'simliklarni qaysi hususiyatlarini tasvirlab bergan
a) o'simliklarni tuzilishini; b) o'simliklarni morfologiyasini; c) o'simliklar geografiyasini; d) o'simliklarni amaliy ahamiyatini; e) o'simliklar fiziologiyasini; g) o'simliklar to'qimalarini
A) *a,f,e* B) *a,e,d*
C) *b,d,e* D) *c,b,a,e*
17. Amerikalik genetik S. Rayt tomonidan olib borilgan tajriba uchun qaysi sinf vakilidan foydalanilgan?
A) *drozofila* B) *hasharot*
C) *ikki qanotlilar* D) *karam kapalagi*
18. Populatsiyani tashkil etgan individlar sonining davriy o'zgarib turish hodisasi nima deb ataladi?
A) *populatsiya to'liqini* B) *genlar dreyfi*
C) *alohidalanish* D) *mutatsiya*
19. Sistematikadagi eng kichik birlik berilgan javobni aniqlang.
A) *Gossypium Hirzitiun* B) *bo'risimonlar*
C) *qirqquloqtoifa* D) *olma*
20. Quyidagi olimlarni "Tur" haqidagi fikrlari bilan juftlang.
1) K. Linney; 2) J. B. Lamark; 3) Ch. Darwin.
a) tabiatda turning real mavjudligini tan olgan; b) tur o'zgarimas deb hisoblagan; c) turning realligini tan olmagan holda tabiatda faqat individlar mavjud deb hisoblagan; d) tabiatda turlar pay do bo'ladi, yo'qoladi, o'zgaradi; f) bir tur yangi turning paydo bo'lishiga asos bo'ladi.
A) *1-a; 2-b,c; 3-d,f* B) *1-a,b; 2-c; 3-d,f*
C) *1-a,b; 2-c; 3-d* D) *1-b; 2-c; 3-f*
21. Karam kapalagi va qichitqio't kapalagi har xil turlarga mansubligi qaysi mezon yordamida aniqlanadi?
A) *morfologik mezon* B) *fiziologik mezon*
C) *genetik mezon* D) *ekologik mezon*
22. Biokimyoviy mezon uchun xos bo'lmagan javoblarni aniqlang.
1-har xil turga kiruvchi organizmlar o'zining kimyoviy tarkibi, oqsil, uglevod, nuklein


- kislotalar va boshqa organik moddalari bilan farq qiladi; 2-har xil tur vakillari bir-biri bilan chatishmaydi; 3-har bir tur uchun xos irsiy material (DNK,RNK) va hujayradagi oqsillarning sifati va miqdorining o'ziga xosligi; 4-tur tarqalgan hudud katta yoki kichik, har joyda yoki yoppasiga bo'lishi mumkin; 5-organizmlarning qaysi turga mansubligini aniqlash uchun ulardagi nuklein kislotalari farqini belgilash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin; 6-jinsiy dimorfizm.
- A) 1,3,5 B) 2,4,6
C) 1,2,3,5 D) 2,4,5
23. evolutsion jarayonlar uchun material bo'lib xizmat qiladi.
- A) *genofond* B) *tabiiy tanlanish*
C) *mutatsiyalar* D) *ko'payish*
24. Tib qonunlari kitobining qismlarini ketma-ketlikda joylashtiring.
- 1) murakkab dorilar, ularni tayyorlash; 2) odam tanasi, organlarining tuzilishi va funksiyalari, turli kasalliklarning kelib chiqishi, ularni davolash usullari; 3) o'simlik, hayvon va madanlardan olinadigan dorilar va har qaysi dorining qaysi kasallikka davo ekanligi; 4) jarrohlik ya'ni suyaklarning chiqishi, sinishini davolash; 5) insonning har bir organida bo'ladigan kasalliklar, ularni aniqlash va davolash usullari.
- A) 1,2,3,4,5 B) 2,3,4,5,1
C) 2,3,5,4,1 D) 2,3,4,1,5
25. Tog'lar suv ta'siri yoki yerning ko'tarilishi hisobiga vujudga kelgan deb takidlagan olimga tegishli javobni belgilang.
- A) *inson dastavval hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan*
B) *tabiiy tanlanish va yashash uchun kurashni etirof etgan*
C) *olimning uqtirishicha tabiatdagi barcha narsalar tabiat qonunlariga muvofiq yashaydi va o'zgaradi*
D) *o'simliklar, hayvonlar va odam o'zaro o'xshash*
26. Lamark turlarning o'zgarishida nimaning asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi?
- A) *vaqt*
- B) *tashqi muhit*
C) *organizmlarning o'zaro munosabati*
D) *organizmlarning xulq-atvori*
27. Barcha hayotiy jarayonlarning o'xshashligiga bog'liq bo'lgan mezonni aniqlang
- A) *geografik* B) *ekologik*
C) *fiziologik* D) *genetik*
28. Qaysi olim Hindiston, Markaziy Osiyo, Xitoy o'simliklari va hayvonot dunyosi haqida qimmatli ma'lumotlar to'plagan?
- A) *Abu Nasr Forobiy*
B) *Ahmad ibn Nasr Jayhoniy*
C) *Abu Rayhon Beruniy*
D) *Abu Ali ibn Sino*
29. Achishtiruvchi ayiqtovon turi qayerda tarqalgan?
- A) *dala, o'tloqlarda* B) *cho'lda*
C) *sernam joylarda* D) *botqoqlikda*
30. Abu Rayhon Beruniy fikrlarini aniqlang.
- a) inson organizmi yaxlit sistema; b) inson hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan; c) yer yuzasida doimo o'zgarishlar sodir bo'ladi; d) tirik mavjudotlar orasida yashash uchun kurash boradi; e) tabiiy va sun'iy tanlanishni e'tirof etgan; f) kasalliklar oziqlanish tartibining buzilishiga bog'liq; j) yer yuzasini o'zgarishi o'simlik va hayvonlarning o'zgarishiga olib keladi; k) odamlarning rangi va qiyofasi faqat irsiyatga bog'liq emas.
- A) *a,b,c,d* B) *e,f,j,k*
C) *a,b,e,f* D) *c,d,j,k*



KITOB UCHUN MUROJAT



KITOB UCHUN MUROJAT



KITOB UCHUN MUROJAT